

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“BANK ISHI VA INVESTITSIYALAR”

KAFEDRASI

**Qo`lyozma huquqida
UDK:**

SABIROV ASQAR ALISHEROVICH

**TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG`OZLAR BILAN
INVESTITSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH YO`LLARI**

70410501– Bank ishi va audit mutaxassisligi bo`yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

I.f.n., dots. R.R. Tojiyev

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasida dastlabki himoyadan o`tgan.


№ 36 -sonli bayonnoma “ 2 ” 05 2023 y.

Kafedra mudiri: R.R.Tojiyev


imzo


_____ sana

Ilmiy rahbar: R.R.Tojiyev


imzo

_____ sana


Talaba: A.A.Sabirov


imzo

_____ sana

Dissertatsiya “Korporativ boshqaruv” fakultetida 2023 yil
“ _____ ” № _____ raqami bilan ro`yhatga olingan.

Fakultet dekani __Xalikov U


imzo

_____ sana

ANNOTATSIYA

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari bank tizimidagi bank operatsiyalarining muhim va ahamiyatli mavzularidan biridir. Shu bois tadqiqot ishi davomida mazkur mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Shu bilan birga mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorij iqtisodchi olimlarining fikr va mulohazalari, qarashlari, ilmiy maqolalari hamda tadqiqot mavzusiga oid mahalliy me'yoriy hujjatlar o'rganib chiqildi va adabiyotlar sharhi tayyorlandi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklaridagi, xususan, "Asaka bank" AT va "Agrobank" ATB faoliyatida qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalarning holati va ular bilan ish yuritish darajasi, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan operatsiyalar ko'lamini statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlil usullari yordamida o'rganib chiqildi. Bundan tashqari xorijiy banklarning bu yo'nalishdagi tajribasi, ilmiy qarashlari bilan ham tanishib chiqdik. Tadqiqot jarayonida o'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: investitsion operatsiyalar, investitsiyalar bo'yicha risklar, investitsiya, moliyaviy natijalar, moliya bozori, transfer agenti, broker, diler, anderrayter, fond bozori, treyder, marketolog, marketmeyker, aksiya, obligatsiya, g'azna majburiyatlari, depozit sertifikatlari, qimmatli qog'ozlarning hosilalari, veksel, ustav kapitali, "repo" bitimlari, emitent, aksiyadorlik jamiyati, diversifikatsiya.

SUMMARY

Ways to develop investment operations of commercial banks with securities is one of the important and significant topics of banking operations in the banking system. Therefore, during the research work, we worked extensively on this topic. At the same time, other research works related to the topic, opinions and opinions of local and foreign economists, views, scientific articles, and local regulatory documents related to the research topic were studied and a literature review was prepared. In order to increase the practical significance of the research work, the state of investment transactions with securities and the level of dealing with them in commercial banks operating in our country, in particular, in the activity of "Asaka bank" Joint-stock and "Agrobank" Joint-stock commercial bank, statistical data on the scope of operations carried out in this direction was studied using econometric analysis methods. In addition, we got acquainted with the experience and scientific views of foreign banks in this direction. Based on the data studied and analyzed in the research process, we developed scientific and practical conclusions, suggestions and recommendations on the development of investment operations of commercial banks with securities.

Key words: *investment operations, investment risks, investment, financial results, financial market, transfer agent, broker, dealer, underwriter, stock market, trader, marketer, market maker, share, bond, treasury obligations, deposit certificates, securities derivatives, promissory note, authorized capital, "repo" transactions, issuer, joint-stock company, diversification.*

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro`yhati	7
Keltirilgan rasmlar ro`yhati	9
Keltirilgan qisqartmalar	10
I BOB. KIRISH	11
1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	14
1.2 Tadqiqot maqsadi va vazifalari	15
1.3 Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	16
1.4 Tadqiqot ob`ekti va predmeti	17
1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	17
1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	18
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	20
2.1 Kirish	20
2.2 Mavzuga oid mahalliy me`yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	20
2.3 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarqshlar sharhi	26
2.4 Xulosa	39
III BOB. METODOLOGIYA	41
3.1 Tadqiqot dizayni	41
3.2 Ma`lumotlarni to`plash jarayoni	41
3.3 Tahlil uchun qo`llaniladigan usullar	42
3.4 Tadqiqot o`tkazish uchun zarur shart sharoitlar	43
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning echimi	44
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	45
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	47
4.1 Banklarda qimmatli qog`ozlar bilan investitsion operatsiyalarni tashkil etishning joriy holati tahlili	47

4.2 Qimmatli qog`ozlar bilan bank operatsiyalarinin samarali tashkil etish yo`llari va ularni baholash	67
4.3 Tahlillardan olingan narijalar sharhi	80
V BOB. XULOSA	82
5.1 Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	82
5.2 Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	84
5.3 Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	86
FOYDALANILGAN ADABIYITLAR RO`YHATI	88

I BOB. KIRISH

Respublikamizning barcha jabhalarida olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar rivojlanib, taraqqiy etib borgani sari, tovar-pul munosabatlari ham kengayib, moliyaviy resurslarga nisbatan bo'lgan talab ortib boradi, bu kabi resurslarga bo'lgan talabni to'ldirishda tijorat banklarining o'rni va banklar tomonidan yuritalayotgan investitsion operatsiyalarning ahamiyati kattadir. Banklarga moliyaviy resurslarni jalb qilish (passiv) hamda ularni samarali tarzda investitsion (aktiv) operatsiya sifatida joylashtirish banklarning eng muhim va asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Shuni alihida qayd etib o'tish joizki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, respublikamiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish moliya-bank tizimi, shu jumladan, kapital bozori imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni hamda ushbu tizim faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb bo'lgan muhim masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda respublikamiz qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishda vakolatli davlat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining quyi bo'ginida faoliyat yurituvchchi "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" DUK, "Toshkent RFB" AJ, "Elsis-savdo" AJ va uyushmagan bozorlar tomonidan tartibga solinadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar negizida milliy iqtisodiyotni isloh qilish, tashqi savdo munosabatlarini, soliq va moliya siyosatini, shuningdek, bank operatsiyalarini liberallashtirilishi orqali banklar va bank mijozlariga keng qulaylik va imkoniyatlar yaratilda. Bu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun"¹ degan tamoyildan kelib chiqib, ijtimoiy sohadagi islohotlarni, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish yo'lida davom ettiramiz deb ta'kidlab o'tganlari bejiz emas.

¹ Sh. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil 21 bet.